



MUSTAQILLIK DAVRIDA YOSHLARDA TARIXIY XOTIRANI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Usmonova Ma'mura Suvonovna

Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani 1-son politexnikumi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tariximizni qayta o'rghanish orqali yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish, Madaniy merosimizni asrab-avaylash haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Madaniy meros, milliy qadriyat, vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy-ma'naviy qadriyat, tarixiy shaxslar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обогащения духовного мира молодежи посредством повторного изучения отечественной истории, воспитания ее в духе патриотизма, формирования у молодежи национальной гордости и сохранения нашего культурного наследия.

Ключевые слова: Культурное наследие, национальная ценность, патриотизм, национальная гордость, национально-духовная ценность, исторические личности.

Annotation: This article discusses enriching the spiritual world of young people through re-studying our national history, educating them in the spirit of patriotism, forming national pride in young people, and preserving our cultural heritage.

Keywords: Cultural heritage, national value, patriotism, national pride, national-spiritual value, historical figures.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillardanoq xalqimizning tarixi, boy madaniy merosini o'qib o'rghanishga katta e'tibor qaratildi. Zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash, O'zbekiston tarixini chuqur o'rgatish asosida ularni barkamol rivojlantirishga qaratilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingan edi, hozirda "Istiqlolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni boshqaruv sohasi va davlat xizmatiga samarali jalg etish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qabul qilingan farmonini misol qilib keltirib o'tish joiz. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanining o'rni beqiyosdir. Chunki tarix – bu xalq xotirasi, o'tmish saboqlari va kelajak yo'l-yo'riqlarini belgilovchi muhim omildir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tariximizni qayta o'rghanish, unutilgan sahifalarni tiklash imkoniyati paydo bo'ldi. Buning natijasida Al-Buxoriy, At-Termiziyy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur kabi ajdodlarimiz Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon singari jadidlarimizni qayta kashf etish va ularning ma'naviy merosini o'rghanish ishlari boshlandi [2]. Ularning faoliyati kino, teatr, badiiy asarlarda yoritish orqali yoshlarni ongida milliy g'ururni shakllantirish uchun eng yaxshi dasturi amal bo'lib xizmat qildi.[1] Bu esa ularning dunyoqarashida milliy ma'naviy qadriyatlarga tayanish uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rni ahamiyatlidir.



O'sib kelayotgan avlod tafakkurida milli-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad ularni faqat o'z qadriyatlariga tayanib yashashga o'rgatish emas balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o'zlashtirib mamlakatning o'ziga xos taraqqiyoti unga bog'liqligini hisobga olib yashashga ishlashga da'vat etishdir [3]. Bugungi kunda ko'plab maktab va oliy ta'lif muassasalarida tarixiy shaxslar hayoti, buyuk allomalar merosi keng o'r ganilmoqda. Tarixiy arboblarning faoliyatidan saboq olib, ular ortidan borayotgan yoshlarimiz soni ortib bormoqda. [4] Tarixiy xotira – millatning o'zligini anglash mezoni. Yoshlar tarixini bilsa, kelajagini to'g'ri quradi, xalqining o'tgan yo'lidan saboq oladi.[4]

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida yoshlarning tarixiy xotirasini shakllantirish – ularni ma'naviy yetuk, vatanparvar, kelajakka ishonch bilan qaraydigan insonlar etib tarbiyalashning muhim omilidir. Zero, xalqimiz, ayniqsa yosh avloq onggi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni tamminlashi bilanbirga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini shakllantiradi, Milliy qadriyatimizni hurmat qilishga va uni asrab avaylashga chorlaydi.

Foydalaniqgan adabiyotlar

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Narzullayeva.M.N. "Yoshlar ma'naviyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlар omili" Oriental Renaissance: Innovative educational, natural and social sciences 2021.
3. Rasulov, B. O'zbekiston tarixi: yangi davr. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. UNESCO. History Education and Youth. – Paris, 2020.

